

ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



VOLUME 3, ISSUE 4 **2025**

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 4 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 3, HOMEP 4

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 4



«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MA'MUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№4 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2025-4>

Бош мухаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna
Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Бош мухаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent Ma'mun Universiteti NTM

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI (INGLIZ TILI)

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Kalandarov Oybek Ruzimbayevich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Yakubov Muzaffar Kamildjanovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Galiyeva Margarita Rafaelovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Samandarova Lola Sultanovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

FILOLOGIYA FANLARI (RUS TILI)

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti

Ruzmetov Surojbek Allaberganovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (NEMIS)

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (O'ZBEK TILI)

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik
O'zbekiston Respublikasi Fanlar
akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,
O'zbekiston Respublikasi
Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Goncharov Yuriy Mixaylovich

Tarix fanlari doktori, professor
Altay davlat universiteti Rossiya

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent
Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),
dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyozova Mamlakat Tojiyevna

Tarix fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Urganch davlat universiteti

Xo'jamuratov Umarjon Rustamovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch pedagogika instituti

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor
Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor
Grodno davlat universiteti Belorusiya

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'gli

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Slepko Yuriy Nikolayevich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Yaroslav davlat pedagogika universiteti

Xazova Svetlana Abduraxmanovna

Psixologiya fanlari doktori, dotsent Kostroma
davlat universiteti Belorusiya

Kalandarova Madina Baxadirovna

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sultonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Nazarova Maloxat Berdiboyevna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Xudaynazarova Salomat Ruzibaevna

Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Sultanov Samandar Maxmud o'g'li

Arxeolog (tadqiqotchi pedagog)

Ma'mun Universiteti NTM

FILOLOGIYA

1. Искандарова Нодира Бахрамбековна
ВОСТОК В ЗАПАДНОМ КОНТЕКСТЕ: АДАПТАЦИЯ ОРИЕНТАЛЬНЫХ ОБРАЗОВ В
НЕМЕЦКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ XIX-XX ВЕКОВ.....7
2. Сапаева Хилола Бахромбековна
ЭКОЛОГИЯ И УТИЛИЗАЦИЯ ОТХОДОВ: СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ТЕРМИНОВ В
РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ.....14
3. Mamirova Xayriniso Komiljon qizi
BOLALAR NUTQIDA KO‘P MA’NOLI SO‘ZLARINING O‘ZLASHTIRILISHI: KOGNITIV VA
PSIXOLINGVISTIK YONDASHUVLAR.....18
4. Pulat Fozilov
INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI FIZIOLOGIK HOLAT FE’LLARINING IZOHLI
LUG‘ATLARDAGI TALQINI.....23
5. Masharipov Jakhongir Axmedovich
MORPHOLOGICAL CHALLENGES IN TRANSLATING TRANSPORT TERMINOLOGY
BETWEEN ENGLISH AND UZBEK.....28

IQTISODIYOT

1. Pirnafasov Sarvar Bardiboyevich, Sattarova Mahfuza Dilshodbekovna
MINTAQADA QULAY INVESTITSION MUHITNI SHAKLLANTIRISHNI
TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....32
2. Sattarova Dilfuza Dilshodbekovna
MINTAQADA IQTISODIYOT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHDA ISLOM MOLIVASI
TASHKIOTLARINI JALB QILISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI.....38
3. Mavlanova Barchinoy Shonazar qizi
XORAZM VILOYATI MINTAQASIDA ERKIN IQTISODIY ZONALAR SAMARADORLIGINI
OSHIRISHNING INNOVATSION YO‘NALISHLARI.....45

PEDAGOGIKA

1. Usanova Zulfiya Bozorovna
HOZIRGI INNOVATSION TA’LIM MUHITIDA PEDAGOGIK HAMKORLIKNI
RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TIZIMI (OLIV VA UMUMIY O‘RTA TA’LIM
MISOLIDA).....54

TARIX

1. Tuyev Fazliddin Erkinovich
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIGA CHET EL INVESTITSİYALARINING KIRITILISHI:
2003-2008 YILLAR ZARAFSHON VOHASI MISOLIDA.....59
2. Jumaniyazov Bekzod Ochilovich, Sabanova Nilufar Baxodir qizi
FUQAROLIK JAMIYATI TARIXIY BOSQICHLARI.....64

3. Salayev Dilshodbek Jumanazarovich TURKIY DAVLATLAR INTEGRATSIYASINING TADRIJI (EVOLYUTSIYASI) VA O'ZBEKISTONNING TASHKILOTGA A'ZO BO'LISHI.....	68
4. Xayitmuratova Zaynura G'aybullayevna QADIMGY MARKAZIY OSIYO XALQLARINING METROLOGIK TIZIMI: O'LCHOV BIRLIKLARINING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI.....	73
5. Muborak Madrimovna Matyakubova XIVA XONLIGINING BOSIB OLINISHI VA UNING IQTISODIY HAYOTGA TA'SIRI.....	78
6. Xayitov Shodmon Ahmadovich MILLAT FIDOIYSI, OZODLIK VA ERKINLIKNING TOLMAS KURASHCHISI (MAHMUD XO'JA BEHBUDIYNING MA'NAVIY MEROSIGA BIR NAZAR).....	83
7. Matyaqubova Nozima Maksatbayevna QADIMGY XORAZM SUG'ORISH TIZIMLARI OQCHADARYO VA SARIQAMISHBO'YI O'ZANLARI ASOSIDA DEHQONCHILIK VA MADANIY TARAQQIYOT.....	89
8. Durdona Jamolova BUXORODA GIDLIK XIZMATINI RIVOJLANTIRISHDA TARIXIY RISOLALAR VA MATBUOT MATERIALLARINING MANBAVIY AHAMIYATI.....	93
9. Egamov Yusufboy Ergashbek o'g'li O'ZBEKISTONDA YOSHLARNING DAVLAT BOSHQARUVI VA QONUNCHILIK JARAYONLARIDA ISHTIROKINI MUSTAHKAMLASHDA YOSHLAR PARLAMENTINING O'RNI.....	98
10. Matnazarova Gulnoz Baxtiyorovna QUYI AMUDARYO HUDUDIDA NEOLIT DAVRI POLEOGEOGRAFIYASI HOLATI, O'ZLASHTIRISH BOSQICHLARI.....	103
11. Sanjarbek Davletov, Kamronbek Davlatov YANGI O'ZBEKISTON TASHQI SIYOSATIDA MINTAQAVIY INTEGRATSIYA VA HAMKORLIK.....	107
12. Salimov Matyusuf Kodirberganovich XX ASR BOSHLARIDA NIZOMIDDIN OXUN SALIMOVNING TA'LIM TIZIMIDAGI FAOLIYATI.....	111
13. O'g'iloy Erbo'tayeva Suyunovna IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA DEPORTATSIYA QILINGAN XALQLAR TAQDIRI.....	115
14. Qurbonova Sevara Sodiq qizi XORAZM VOHASIDA URUG'CHILIK JAMIYATINING GEOSIYOSIY SHAKLLANISHI.....	120
15. Сулайманова Сохиба Баходировна СУҒД ВОҲАСИНИНГ ҚАДИМГИ ПАНЧ ТАНГАЛАРИ.....	125
16. Bahridil Ergasheva O'ZBEK XALQINING BOLA TARBIYASIGA OID USULLARI: TARIXIY-ETNOGRAFIK YONDOSHUV.....	129

Muborak Madrimovna Matyakubova-
Urganch davlat universiteti,
Tarix kafedrası dotsenti
E-mail: muborak.matyakubova.78@mail.ru

XIVA XONLIGINING BOSIB OLINISHI VA UNING IQTISODIY HAYOTGA TA'SIRI



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15362944>

ANNOTATSIYA

Xiva xonligi Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi natijasida mustamlaka davlatga aylandi o'zining moddiy va madaniy boyliklaridan ayrildi. Mustamlaka tizimi xonlikning nafaqat ijtimoiy-siyosiy hayotiga, shu bilan bir qatorda iqtisodiy hayotiga ham katta ta'sir qildi. Ushbu maqolada rus bosqini va uni xonlikning iqtisodiy hayotga ko'rsatgan ta'siri tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Xiva xonligi, Gandimiyon shartnomasi, Muhammad Rahimxon II, moddiy va madaniy boyliklar, iqtisodiy hayot, A.Kun.

Mubarak Madrimovna Matyakubova-
Urgench state university,
associate professor of the
Department of History

THE CONQUEST OF THE KHANAGE OF KHIV AND IMPACT ON ECONOMIC LIFE

ABSTRACT

The Khiva Khanate, as a result of its conquest by the Russian Empire, became a colonial state and lost its material and cultural wealth. The colonial system had a great impact not only on the socio-political life of the khanate, but also on its economic life. This article analyzes the Russian invasion and its impact on the economic life of the khanate.

Keywords: Khiva Khanate, Gandhimyan Treaty, Muhammad Rakhimkhan II, material and cultural wealth, economic life, A.Kun.

Муборак Мадримовна Матьякубова-
Ургенчский государственный университет,
доцент кафедры истории

ЗАВОЕВАНИЕ ХИВСКОГО ХАНСТВА И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ЭКОНОМИЧЕСКУЮ ЖИЗНЬ

АННОТАЦИЯ

В результате завоевания Российской империей Хивинское ханство превратилось в колониальное государство и утратило свои материальные и культурные богатства.

Колониальная система оказала большое влияние не только на общественно-политическую жизнь ханства, но и на его экономическую жизнь. В статье анализируется русское вторжение и его влияние на экономическую жизнь ханства.

Ключевые слова: Хивинское ханство, Гандимянский договор, Мухаммад Рахимхан II, материальные и культурные ценности, экономическая жизнь, А. Кун.

KIRISH VA DOLZARBLIGI

Markazlashgan va mustaqil davlat – Xiva xonligi Rossiya bosqini natijasida 1873 yil 12 avgustda podsho hukumati nomidan Turkiston general-gubernatori K.P.Kaufman va Xiva xoni Muhammad Rahimxon II (Feruz) imzolagan, 18 banddan iborat Gandimiyon shartnomasi tufayli o'z mustaqilligini yo'qotib, Rossiya mustamlakasiga aylandi va boshqa davlatlar bilan bevosita tashqi aloqalar olib borish huquqidan mahrum bo'ldi [1,b-17]. Mazkur shartnoma ikki tilda turkiy yozuvidagi o'zbek va rus tillarida yozilgan [2]. Gandimiyon shartnomasi haqida Xiva tarixnavislari qo'lyozma asarlari va boshqa tadqiqot ishlarida ma'lumotlar berilgan [3]. Bu davr Muhammad Rahimxon II boshqaruvinig ikkinchi (1873-1910) bosqichi bo'lib, bevosita Rossiya imperiyasiga mustamlaka davri hisoblanadi. 1873-yil imzolangan Gandimiyon shartnomasiga ko'ra Amudaryoning avval Xiva xonligi tasarrufida bo'lgan keyinchalik Rossiya imperiyasi ixtiyoriga o'tgan o'ng qirg'og'i hududida Turkiston general-gubernatorligining Amudaryo bo'limi tashkil qilingan. Xonlik va rus yerlari orasidagi chegara Amudaryo hisoblanib, uning o'ng tomonidagi qirg'oqlari Rossiyaga o'tishi, rus kemalarinnig Amudaryo bo'ylab suzishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratiladi. Ruslar Amudaryoning chap qirg'og'idagi qulay joylarda kemalar to'xtaydigan bandargohlarni qurish huquqiga, xonlikinig barcha shaharlari ruslarni savdo qilishiga ochiq bo'lishi, rus savdogarlari barcha bojlardan ozod qilinishi, rus fuqarolariga xonlikda ko'chmas mulk sotib olishga ruxsat berilishi hamda zimmasiga 2.000.000 so'mlik tovonni 20 yil davomida to'lash majburiyati yuklanadi [4,b-284]. Bundan ko'rinadiki, Gandimiyon shartnomasi zo'rovonlikdan iborat mustamlakachilik akti bo'lib, Chorizm tufayli o'lkada tipik mustamlaka rejimi o'rnatildi [5, b-273]. XIX asrda Markaziy Osiyo ustidan hukmronlikni kengaytirishga intilgan Rossiya imperiyasini Xiva xonligini bosib olishi natijasida harbiy istilo nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy hayotda ham chuqur iz qoldirdi. Har tomonlama mustaqil bo'lgan xonlik o'z iqtisodiyotini mustamlakachilik tuzumi talablariga moslashtirishga majbur bo'ldi. Bu avvalo xonlik xazinasiga jiddiy zarar yetkazdi, aholidan ortiqcha soliqlar yig'ilishiga sabab bo'ldi, budjet mablag'larining ijtimoiy ehtiyojlarga emas, bosqinchi davlat manfaatlariga yo'naltirilishiga olib keldi. Rossiyaning sanoat mahsulotlari (matolar, metall buyumlar, kundalik anjomlar) arzon narxlarda Xiva bozorlariga kirib kelishi natijasida mahalliy hunarmandlar mahsulotlariga bo'lgan talabning kamayishiga, hunarmandchilik ustaxonalari yopilib, qisqarishi ko'plab ustalarni boshqa kasb izlashga majbur qildi.

METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI

H.Ziyoyevning tarixiy asarlarida Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoga bosqinchilik yurishlari, xususan ularning Xiva xonligi madaniy hayotiga ko'rsatgan salbiy ta'siri borasida ma'lumotlar beradi [6,b-8]. Jumladan muallifning "Tarixning ochilmagan sahifalari" asarida Xiva xonligining ijtimoiy-siyosiy ahvoli, aholining asosiy mashg'ulotlari va tabaqalanishi, xonlik nufuzi, qo'shinning ahvoli, davlatni idora qilish usuli, xonlikdagi jadidchilik harakati kabi masalalar yoritilgan [7, b-230]. Tadqiqotchi G'.A.Ahmadjonovning tadqiqotlari Rossiya imperiyasining Turkistondagi mustamlakachilik siyosati tarixi va tarixshunosligiga bag'ishlangan. Asar qiymati shundaki, xonlik tarixini tahlil qilishda nazariy asos bo'la oladi [8, b-284]. Hammualliflar O.Qo'shjonov va N.Polvonov "Xorazmdagi ijtimoiy-siyosiy harakatlar va jarayonlar" nomli monografiyasida dastlab Xorazmga rus ekspeditsiyalarining kelishi, keyinchalik Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishidan Xorazmdagi jadidchilik harakati hamda Xorazm Xalq Sovat Respublikasidagi siyosiy harakatlargacha so'z yuritilgan[1] .

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Xonlikka hech bir to'siqlarsiz kirib kelayotgan rus sanoati mollari mahalliy hunarmandchilik mahsulotlarini siqib qo'ydi, oqibatda Xiva hunarmandchiligining qadimiy davrdan an'anaviy tarzda

davom qilib kelgan ko'pgina tarmoqlari inqirozga uchradi. O'lkaning xomashyo bazasiga aylanib qolishi bu yerda sanoatning, savdoning taraqqiyotiga to'siq bo'ldi. Bu esa feodal munosabatlarining saqlanib qolishiga zamin yaratdi [9, b-274].

O'rta Osiyoning arzon xom ashyo manbai va rus sanoat mollari sotiladigan qulay bozor bo'lishini 1826 yildayoq, general-mayor Verigin Rossiya imperatori Nikolay I (1825-1856) ga yo'llagan taqdimnomasida bayon qilgan edi. Verigin Rossiyada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar mamlakat ichkarisida ham zo'r-bazo'r sotilayotgani va sifati past bo'lgani uchun Yevropa bozorlarida kuchli raqobatga dosh berolmasligini ko'rsatib, O'rta Osiyo bu jihatdan rus sanoat mollari sotiladigan qulay bozorga aylantirishi mumkinligini bayon qilgan. Bu fikrni keyinchalik senator K.K. Palen rivojlantirib shunday degan edi: "Turkistonni istilo qilishning siyosiy sabablarini hisobga olmagan taqdirda ham bu o'lka Rossiya tarafidan bosib olinishini dastlabki kunlaridanoq Rossiya uchun ikki jihatdan qiziqish uyg'otgan edi. Birinchidan moliyaviy siyosat jihatidan davlat daromadi va ishlab chiqarish mahsulotlari uchun yangi bozor. Ikkinchidan markaziy guberniyalardan ortiqcha aholini ko'chirib keltirish uchun qulay hudud [10]. Bundan xulosa shuki, O'rta Osiyo hududi mustamlakachilar uchun nafaqat xom-ashyo sotish uchun bozor balki, aholini joylashtirish uchun qulay hudud ham edi.

Xon saroyida va xonlikning boshqa joylarda saqlanayotgan xorazmliklarning ko'pgina qadimiy boyliklari, bebaho madaniy va ma'naviy yodgorliklarini talon-toraj qilish dasturi Rossiya amaldorlari tomonidan Xiva xonligiga bosqinchilik yurishi boshlanishidan ilgariyoq juda puxta reja asosida ishlab chiqilgan bo'lib, bu ishga Peterburgdagi Rossiya jug'rofiya jamiyati bosh-qosh bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Turkistonda bir necha marta bo'lgan, uning sharoitini yaxshi o'rgangan yirik sharqshunos P.I.Lerxning istilo jaroyonida qanday yodgorliklarga e'tibor berish va ularni egallash haqida ishlab chiqqan rejasi Turkistonga yuborilib, bosmaxona yo'li bilan nashr qilinadi va qo'llanma sifatida zobitlarga tarqatiladi [10]. Qo'lga kiritilgan qo'lyozma va antiqa buyumlarni yig'ishtirib olish va ularni Peterburgga jo'natish vazifasi esa Turkiston general-gubernatorining faxriy maslahatchisi sharqshunos A.L.Kun zimmasiga ma'muriy yo'l bilan yuklatiladi [11]. Rossiya amaldorlari va armiya zobitlari tomonidan xonlik mulkini talon-toraj qilish general Golovachyov va u bilan birga bo'lgan Kaufmanning saroydagi barcha qimmatbaho buyumlar va ma'naviy boyliklarni birma-bir ko'zdan kechirishi bilan boshlangan. Talonchilar xon saroyidagi xonalarning barchasiga kirib, ulardan yig'ishtirib olinishi zarur bo'lgan boyliklarni aniqladilar. Hatto xon harami va undagi xotin-xalajlarning turli-tuman qimmatbaho zebziynat bezaklariyu, kiyim-kechaklar, haram oshxonasi ko'rki hisoblangan nodir buyumlar ham Rossiya imperiyasi generali va uning atrofida nazaridan chetda qolmagan [12]. Xon saroyi tarixchisi Muhammad Yusuf Bayoniyning "Shajarayi Xorazmshohiy" asarida bayon qilinishiga qaraganda, xazinadan musodara qilib olingan boyliklar tarkibida ziynatlangan sandallar ham bo'lib, ularning biri Muhammad Rahim Bahodirxon (1806-1825) davridan ilgarigi zamonlarga mansub edi, yana biri esa, general Golovachyov taxminiga ko'ra, Rossiya imperatoridan xonga hadya tariqasida bu yerga kelib qolgan. Xazinadan yig'ib olingan buyumlar tarkibida tangaga to'ldirilgan temir sandiq,

oltin va zumrad bilan ziynatlangan zinpo'sh, Xuroson va boshqa xorijiy mamlakatlardan keltirilgan qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan shamshir va xanjarlar, miltiqlar, to'punchalar, yangi usxadagi bir necha ingliz olti otarlari, Ost-Indiya kompaniyasi rahbarligidan lord Norsbruk xonga sovg'a qilgan yangi nusxadagi qo'shotar ov miltig'i, dala durbini, o'n ikkita to'fang, sovutlar, dubulg'alar, o'q-yoylar bo'lib, bularning "hammasi... bahodor nimnarsalar edi, Peterburgga yuborildi" [12], deb yozadi Bayoniy. Xon saroyi uch kun mobaynida talon-toraj qilingan. "Muning so'nggi kuni, - deb tasvirlaydi Bayoniy, - Rossiya askarlaridan bir jamoa Arkka kirib, qolgan ahmolu asqolni toraj etdilar" [13]. Askarlar saroydagi buyumlarni yig'ishtirib olishdan ko'ra ko'proq ularni titkilab, sindirib tashladilar [1, b-172]. Xon saroyidagi moddiy va ma'naviy boyliklar olib ketilib, bu iqtisodiy munosabatlarga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Xiva xonligi Rossiya tomonidan bosib olingandan keyin ham xo'jalikni asosini tashkil qilgan qishloq xo'jaligi mulkchilik munosabatlarida keskin o'zgarishlar yuzaga kelmadi. Xonlikning iqtisodiy asosini dehqonchilik va chorvachilik tashqil qilib, mamlakatning asosiy

boyliги ham shulardan olingan. 1910-yilda xon mahkamasi tomonidan tayyorlangan statistik ma'lumotiga ko'ra, mamlakatda dehqonchilik qilinadigan jami yer maydoni 571 ming tanobni (bir tanob - 0,4 ga), ekilmasdan yotgan yer maydoni esa 1 million 18 ming tanobni tashkil qilgan[1, b-122]. Xonlik iqtisodiyotida savdo-sotiq katta o'rinni egallaydi. 1873-1917-yillar davomida savdo ancha kengayib, u mamlakat xalq xo'jaligi boshqa sohalarining ham jonlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Bu davrda Xiva xonligi butun O'rta Osiyodagidek Rossiya sanoati mahsulotlari sotiladigan daromadli bozorga aylandi. Rossiya savdogarlari va sanoatchilari Xiva bozorlariga gazlama, choy, qand, shakar, konfet, paxta ipi, kiyim tikadigan mashina, gugurt, sham, qoramurch, zanjir, achchiq tosh, bolgor charmi, taxta, mix, kerosin, neft, qalay va har xil metall mahsulotlari keltirganlar. Xivadan esa paxta, ipakdan qilingan chopon; mol, qoy, tulki va qorakol terilari; qo'y va tuya yungi; gilam, kigiz mahsulotlari, royon va boshqa mahsulotlar olib ketilgan[14]. Xivaliklarning Buxoro va Rossiya bilan iqtisodiy aloqalarini yanada kuchaytirgan omillardan biri Chorjo'y temir yo'l uzelinig barpo qilinishi va 1887 - 1888 yillarda Amudaryoda paroxod qatnovining ochilishi bo'ldi. Amudaryo flotiliyasi va bo'limining vujudga kelishi bilan XIX asrning boshlarida xivalik savdogarlar o'z tovarlarini Rossiya va boshqa savdogarlarga shu yerda sotish imkoniga ega bo'ldilar. Natijada Amudaryo yaqinida joylashgan shaharlar mavqei oshgan, ayniqsa Yangi Urganch shahrining mavqei yanada ortdi. Urganchda pochta telegraf bo'limi, Rossiya-Osiyo banki bo'limi, "Katta Yaroslav manufakturası" kompaniyasi paxta zavodlari joylashgan[1,b-127]. Yangi Urganch shahrida o'n bitta paxta tozalash zavodi (ulardan oltitasi mahalliy tadbirkorlarga tegishli edi), ikkita yog' zavodi, sovun va ko'n zavodi, bitta tegirmon bo'lgan.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Xiva xonligi Rossiyaning vassal davlati sifatida ichki va tashqi savdoni amalga oshira boshlagan. Ichki bozorlari, savdo do'konlari va ras-talarining ko'pligi jihatidan xonlikda Yangi Urganchdan tashqari, Xiva, Qo'ng'iro't, Ko'hna-Urganch, Chimboy, Xo'jayli singari shaharlari ham alohida ahamiyat kasb etgan. Xiva ichki bozorlarida mahalliy va chet ellik savdogarlarning chetdan olib keltirilgan tovarlaridan tashqari mahalliy hunarmandlar ishlab chiqargan 60 turdan ortiq mahsulotlari bilan ham savdo qilingan. Xiva xonligi va Rossiya o'rtasidagi savdo munosabatlarida Orenburg va Nijniy Novgorod shaharlari yetakchilik qilgan hamda asosiy ro'l o'ynagan. Rossiyadan Xivaga turli-tuman tovarlar olib kelinganligini o'sha davrda Xiva xonligida bo'lgan venger sayyohi Vamberi Xiva xonligi xonadonlari uy-rozg'or buyumlarini o'rganib, Xivada Rossiyadan keltirilgan biron bir narsa bo'lmagan xonadon yo'q deb yozgan edi[15].

XULOSA

O'rta Osiyoning Rossiya, qozoq juzlari, Kavkaz, Eron bilan savdo munosabatlari rivojlanishi ichki savdo-sotiqni jonlantirdi. Bozor munosabatlarining rivojlanishi tovar-pul munosabatlarining shitob bilan o'sishiga imkoniyat yaratdi. Shaharlarning qishloqlarga nisbatan jadal rivojlanishi yangi shaharlarni vujudga keltirdi va eskilarining rivojlanish jarayonini tezlashtirdi. Bu mamlakat iqtisodiy hayotida shaharlarning ahamiyati ortishiga olib keldi. XX asr boshlariga kelib Xiva, Yangi Urganch, Qo'ng'iro't, Toshhovuz, Gurlan, Buxoro, Termiz, Chorjo'y, Kogon kabi yangi shaharlar vujudga keldi[1,b-251]. Ushbu shaharlarda mahalliy va Rossiya qo'shma korxonalarining idoralari, omborlari, sanoat korxonalari joylashgan. Rossiya kapitali amaliyotlari tufayli O'rta Osiyoda ichki bozor imkoniyatlari ancha kengayib borgan. Tovar-pul munosabatlari rivojlanib, yangi savdo sanoat markazlari shakllangan.

Iqtiboslar/References/Сноски

- 1.Qo'shjonov O, Polvonov N. Xorazmdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va harakatlar. XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr birinchi choragi. – Toshkent, 2007. 17 - b.
 - 2.«Гандимиён шартномаси» Ўзбекистон ФА Шарқшунослик институтида № 12581 раками остида сакланаётган
- Ҳасанмурод Лаффасийнинг Хива тарихи материаллар қўлёзма асарида тўлиқ ўзбек тилидаги матни берилган. Шартноманинг рус тилидаги тўлиқ матни ЎЗР МДА «Туркистон генерал-

губернатори канцелерияси»да, Ф-1, оп-27, д-7.; А.Г. Серебренниковнинг «Туркистон ўлкаси, уни босиб олиш тарихига оид материаллар тўплами»да, Ф-715, оп-1, д-58 сақланади.

3.Баёний. Шажараи Хоразмшоҳий. // Қўлёзма Ўз ФА ШИ. № 9596.; Ҳасанмурод Лаффасий. Хива тарихи

Materiallar // Qo'lyozma. O'z FA SH No 12581.; Veselovskiy N.I. Qadim zamonlardan hozirgi kungacha Xiva xonligi haqida tarixiy-geografik ma'lumotlarga oid insho. Spb., 1877.; Jukovskiy S.V. Rossiyaning Buxoro va Xiva bilan keyingi uch yuz yillik munosabatlari. P., 1915; Grodekov N.I. Xiva yurishi. 1873 yil Izd. 2. Spb., 1888.; Sodiqov A.S. 19-asr oxiri 20-asr boshlarida Rossiya va Xiva. - T.: Fan, 1972. Rus sharqshunosi Ivanov P.P., Troitskaya A.L., Yo'ldoshev M.Y. Xiva xoni arxivini topib, ilmiy jamoatchilikka tanishtirdi va u hozirda Xon tarixining asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotchi Obidov M. Gandimiyon Markaziy davlat arxivida saqlanayotgan Xiva xonlari arxividan shartnomaga oid hujjatlarni topib o'rgandi. Xiva xonlari kanselyarligidagi hujjatlar shartnomaning 18-bobiga oid hujjatlar bo'lib, hozir F-125. op-1, d-1-20, jami 90 tasi keltiriladi.

4.Зиёев Ҳ. Россиянинг Қозон, Астрахан, Сибир, Қрим, Кавказ ва Туркистонга тажовузи ва ҳукмронлигига қарши курашлар. (XVI асрнинг иккинчи ярми — XX аср бошлари). Тошкент, 2012.284-бет.

5.Матниёзов М. Хоразм тарихи. I-жилд. Урганч, 1996. 3273-б.

6.Матёкубова М.М. XIX асрнинг иккинчи ярми - XX асрнинг бошларида Хива хонлигида китобат ва кутубхона тарихи.монография.Тошкент, 2012, 8 - бет.

7. Зиёев Ҳ. Тарихнинг очилмаган саҳифалари. Тошкент, “Меҳнат”, 2003, 230 б.

8. Аҳмеджанов Г.А. Советская историография присоединения Средней Азии к России. Ташкент, 1989, 56 с;

Ўша муаллиф. Российская империя в Центральной Азии (история и историография колониальной политики царизма в Туркестане). Ташкент, "Фан", 1995. - 230 с; Ўша муаллиф. Россия империяси Марказий Осиёда (Чоризмнинг Туркистондаги мустамлакачилик сиёсати тарихи ва тарихнавислиги). Тошкент, 2003, 270 б; Ўша муаллиф. Россия и Центральная Азия. Взаимосвязь в историческом развитии. Москва - Ташкент, "Радуга-принт", 2008, 184 с.

9.Материалы к характеристике народного хозяйства в Туркестане. ч.. отд. 4. СПб, 1911, 111-бет.

10.Содиқова Н. Талон-торож килинган мулк. //Ўзбекистан адабиёти ва санъати. 1991 й. 19 июль.

11. Мак-Гахан. Военные действия ка Оксусе и падение Хивы. М., 1875. С. 180-1

12. Баёний. Шажарайи хоразмшоҳий. Т., 1991. 220-221-бетлар; шунингдек, Мак-Гахан, Уша асар, 181-182-бетлар.

13. Бартольд В.В. Сочинение. Т. 2. Москва, 1963. С. 413.

14. Ўзбекистон МДА. 125-И-фонд, 1-рўйхат, 56-иш, 211-212-варақлар.

15.А. Вамбери, Путешествие по Средней Азии.- М., 1868, с. 213.

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 4 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 3, HONEP 4

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 4

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000